

**JANUBIY OROLBO'YI KSILOFAG-HASHAROTLARI DOMINANT TURKUMLARINING (INSECTA:COLEOPTERA, ISOPTERA,
LEPIDOPTERA, HYMENOPTERA, DIPTERA)**

BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹Juginisov T.I., ¹Alimbetov A.A., ¹Asemenova D.Y.,

²Ro'zimatova F.SH., ¹Ubaydullayeva E.A.

¹ Qoraqalpoq davlat universiteti

tangirbergenzuginisov@gmail.com

² Urgench davlat universiteti

Abstract: This article says that one of the main reasons for the reproduction of xylophagous insects is the fact that a large part of the natural biotope of the Southern Aral Sea is found in sandy-desert areas, which is an exceptional place for the development of pests.

Bugungi kun global iqlim o'zgarishi, insoniyat tomonidan tabiiy ekotizimlarning o'zlashtirilishi va urbanizatsiyaning rivojlanishi entomofauna vakillarining antropogen o'zlashtirilgan hududlarga moslashishi va ular zarar ko'lamining oshishiga olib kelmoqda.

Coleoptera (Linnaeus, 1758) turkumining MDH davlatlarida 20 mingdan ortiq turi, 100 dan ortiq oilalari hisobga olingan. Ularning ko'pchilik turlari quruq yog'och va yog'och materiallari bilan oziqlanuvchilar toifasiga kirib, insoniyat qo'li bilan yaratilgan barcha yog'och buyumlarning jiddiy zararkunandasi hisoblanadi.

Ko'pchilik qo'ng'izlar yil davomida bip, ba'zan 2-3 bo'g'in berib rivojlanadi. Tuproqdagi turlari (xrushlar) sekinlik bilan rivojlanishidan bir bo'g'in urchishi uchun 3-5 yil kerak bo'ladi. Qo'ng'iz turlarining rivojlanishi 4 bosqichni; tuxumlik, qurtlik, g'umbaklik va yetuk imagolik davrlarini o'tkazadi. Ushbu holatlar zlatkalar – *Acmaeoderella* sp., *Buprestis rustica*, *Trachypteris picta* duradgor arilar - *Xylocopa valga*, mo'ylovdorlar - *Criocephalus rusticus*, *Callidium violaceum*, *Hylotrupes bajulus* va parmalovchilarda - *Anobium pertinax*, terak bargxo'rlari- *Agelestica alni* da ko'plab kuzatiladi [1; 2; 3].

Isoptera (Brullé, 1832) –termitlar turkumining bugungi kunda jahonda 2933 turi aniqlangan, shundan 120 turi zararkunanda sifatida qayd etilgan [2; 3; 4]

O'zbekiston hududida *Anacanthotermes* (Jacobson, 1904) avlodiga mansub 2 ta tur: turkiston va katta kaspiy orti (*A.turkestanicus*, *A.ahngerianus*) термитлари tarqalgan bo'lib, ayniqsa keyingi 20-30 yil davomida Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi xonadonlari, qishloq xo'jaligi binolari va hatto tarixiy obidalarga katta zarar yetkazmoqda.

Anacanthotermes (Jacobson, 1904) avlodiga mansub termitlarga qarshi kurash choralari ishlab chiqilgan bo'lsada, ularning uyalarida tabaqalarining funksional ixtisoslashganligi, sonining nihoyatda ko'pligi, kurash choralari o'tkazilgan taqdirda ham oz qolgan miqdordagi termitlar tezlikda o'z populyatsiyasini qayta tiklash qobiliyati, amaldagi kurash chora-tadbirlarida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shularni hisobga olgan holda, termitlarga qarshi ekologik zararsiz, yuqori samarali takomillashtirilgan yangi kurash texnologiyasini ishlab chiqish zarurdir.

Lepidoptera (Linnaeus, 1758) – tanga qanotlilar turkumi o'z ichiga 170 mingdan ortiq turni birlashtiradi, Rossiya 9 mingdan ortiq turi qayd etilgan (1). Tanga qanotlilar katta kichikligi, ikkala juft pardasimon qanoti tangachalar bilan zich qoplangani va og'iz apparatining yuqori jag'siz, spiralsimon bo'lishi boshqa turkum hasharotlaridan farq qiladi.

O'zbekiston sharoitida Lepidoptera, Cossidae (Fabricius, 1794) avlodiga mansub *Cossus cossus* (Linnaeus, 1758) turi kuzatilgan, shuningdek ilk bor Janubiy Orolbo'yi hududi shahar va tuman to'qay xo'jaliklarida qayd etildi. Bunda asosan Mo'ynoq tumani to'qay xo'jaligi *Populus nigra*, *Populus alba*, *Elaeagnus angustifolia* daraxtlarida va Qo'yi Amudaryo davlat biosfera rezervatida alekto brajnigi-*Theretra alecto* (Linnaeus, 1758), chirmovuq brajnigi-*Agrius convolvuli* (Linnaeus, 1758), oddiy til brajnigi-*Macroglossum stellatarum* (Linnaeus, 1758), turanga brajnigi-*Laothoe philerema* (Djakonov, 1923) turlarining yuqori darajada tarqalganligi aniqlandi.

Hymenoptera (Linnaeus, 1758) - parda qanotlilar turkumi o'z ichiga 150 000 ortiq turni birlashtiradi. MDH davlatlarida 20 000 turi qayd etilgan [1; 4]. Tadqiqot ishlarida Janubiy Orolbo'yi tabiiy ekotizim va antropogen-transformatsiyalangan hududda 4 oilaga, 5 avlodga oid Apidae (Latreille, 1802), *Anthophora* (L.), *Anthophora* sp. (L.); *Xylocopa* (L.), *Xylocopa valga* (Gerstaecker, 1872); Megachilidae (L.), *Megachile* (L.), *Megachile centuncularis* (Lin., 1758); Bethilidae (Ashmead, 1893), *Sclerodermus* (Latreille, 1809), *Sclerodermus domesticum* (Klug, 1809); Formicidae (L.), *Camponotus* (Mayr, 1861), *Camponotus lameerei* (Emery, 1898) parda qanotlilar turlari qayd etildi. Hymenoptera turkumi hasharotlari qanotlarining pardasimon bo'lishi, orqa juft qanotlarining oldingisidan kichik bo'lib, mahkam birlashgani bilan ajralib turadi.

Diptera (Linnaeus, 1758) – ikki qanotlilar turkum vakillarining bugungi kunda 160 mingdan ortiq turi aniqlangan. Tanasi har xil kattalikda, bosh qismi ko'pincha sharsimon, ko'krak bilan ingichka bo'yin orqali birlashgan va harakatchan bo'ladi. Ikki qanotlilarning bosh qismi harakatchan bo'lib, og'iz organi xartumcha shaklida joylashib, so'ruvchi tipda. Lichinkalari oyoqsiz shaklda qurt holida, g'umbagi esa pilla ichida joylashgan bo'ladi. Stratiomyidae oilasi harakatsiz chivinlar toifasiga kirib, jahonda 380 avlod, 2700 turni o'z ichiga oladi [1; 4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамраев А.Ш., Лебедева Н.И., Мирзаева Г.С. Исследования видового состава ксилофагов Узбекистана // Доклады АН РУз. – Ташкент, 2013. - №5. – С. 56-60.
2. Ganieva Z.A., Kholmatov B.R., Karimov F., Zhuginisov T.I., Mirzaeva G.S. Habitat Plants And Foraging Preferences In Termites Of The Genus *Anacanthotermes*// International journal of scientific & technology research (IJSTR), India. 2019, - Vol. 8, Iss. 11, pp. 2863-2870. (№40, ResearchGate, IF=0,28; №3, Scopus SC=0,25).
3. Carta L.K., Handoo Z.A., Lebedeva N.I., Raina A.K., Zhuginisov T.I., Khamraev A.Sh. Peloderatermitissp.n. and two other rhabditid nematode species associated with the Turkestan termite *Anacanthotermes turkestanicus* from Uzbekistan. Journal «International Journal of Nematology». –USA, Beltsville, 2010.Vol. 20, -№2. – P. 225-232.
4. Zhuginisov T.I., Lebedeva N.I., Ganieva Z.A., Kaniyazov S. J., Mirzaeva G.S. Xylophagous insects in the dead wood of Uzbekistan // Journal« EPRAInternational Journal of Research and Development (IJRD)». –USA, Beltsville, 2019. Vol. 4, - №10. – P. 149-154. (SJIF: 6.260)
5. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335.
6. izi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019–2023. *European science review*, (3-4), 13-22.

7. Khursandovich, B. J., Yusupovich, R. A., Ziyodovna, A. N., & Rakhimovna, O. N. (2021). Species composition and Karsh state university, Uzbekistan
7.11.2024

significance of entomophages of apple moth in the south of Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(6).

8. Bobonazarov, G. (2024). BIOXILMA-XILLIK QISQARISHI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI. *SOG'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishni tashkil etishning zamonaviy muammolari va istiqbollari*, 1 (01).